

APRIL 23-24

2024



O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



Chirchiq davlat pedagogika
universiteti

**Zamonaviy filologiya va
lingvodidaktikaning dolzarb
masalalari**

***Current Issues of Modern Philology and
Linguodidactics***

***Aktuelle Fragen der modernen
Philologie und Linguodidaktik***

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

International Scientific and Practical Conference

Internationale wissenschaftliche und praktische Konferenz

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA



1-QISM

PART 1

TEIL 1

CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

CHIRCHIK STATE
PEDAGOGICAL UNIVERSITY

STAATLICHE PÄDAGOGISCHE
UNIVERSITÄT CHIRCHIK

www.cspu.uz

CHET TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MAQTASH VA TANQID QILISHDA ISHLATILADIGAN LEKSIK BIRLIKLAR

Gulnora Abdiyatovna Tilabova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Turizm fakulteti

nemis tili kafedrasida magistranti

E-Mail: gulnoratilabova734@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dots. Z.I.Sanakulov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola chet tili darslarida bo'lajak nemis tili fani o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarni tanqid qilish va maqtashda ishlatadigan leksik so'zlari, gaplari o'rganilgan. Bundan tashqari, xatolar va ularni tuzatishda, xatolar turlari va unda ishlatiladigan leksik birliklar haqida ma'lumotlar misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Rag'batlantirish, tanqid, lug'at boyligi, psixolingvistika, lingvistik bilimlar bazasi, kombinatsiyaviy bilim

ABSTRACT

This article presents lexical words, sentences, and examples used by German language teachers in foreign language classes when criticizing and praising students. In addition, information about errors and lexical units used in their correction, types of errors and lexical units used in them, examples and sentences are explained.

Keywords: stimulation, criticism, vocabulary, psycholinguistics, linguistic knowledge base, combinational knowledge

O'qituvchining kasbiy leksika o'rganilgan adabiyotlarda chet tili darslarida o'quvchilarni maqtash va tanqid qilish leksikasi uch turga bo'linadi:

1. rag'batlantirish va tanqid qilish;
2. xatolar va ularni tuzatish;
3. intizom.

Rag'batlantirish va tanqid mavzusi leksikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ko'pgina o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirishni ifodalash uchun bir nechta odatiy iboralardan foydalanadilar. Biz standart repertuarni kengaytirmoqchimiz. Haqiqiy maqtov san'ati esa o'quvchi faoliyatining muvaffaqiyatli tomonlarini bu yerda mumkin bo'lganidan ham ko'proq tabaqalashtirilgan tarzda ta'kidlashdadir.

O'qituvchi o'quvchining ishlarini kuzatadi, tinglaydi yoki diqqat bilan nazorat qiladi. To'g'ri javoblar/tushuntirishlar uchun o'qituvchi o'z maqtovini quyidagicha ifodalashi mumkin bo'ladi (1-jadval):

1-jadval.

Nemis, ingliz va o'zbek tillarida o'quvchilarni maqtash uchun qo'llanadigan leksika

Deutsch	English	Uzbek
Prima!	Fine!	A'lo!
Einwandfrei!	Flawless!	Benuqson!
Richtig, genau so	Right, exactly like that	To'g'ri, xuddi shunday
Die Antwort passt genau.	The answer fits exactly	Javob to'liq mos keladi.
Stimmt(Vollkommen)	True (Completely)	To'g'ri (to'liq)
Wunderbar!	Wonderful!	Ajoyib!
Ausgezeichnet!	Excellent!	Ajoyib!
Das ist eine hervorragende Antwort/mit Abstand die beste Antwort.	This is an excellent answer/by far the best answer.	Bu ajoyib javob/eng yaxshi javob.
Sehr gut! Das ist genau das, was ich hören wollte.	Very good! That's exactly what I wanted to hear.	Juda yaxshi! Men eshitishni xohlagan narsam aynan shu edi.
Du hast keinen(einzigen) Fehler gemacht		Sen umuman (bitta ham) xato qilmading
Ich sehe, du hast sehr fleißig gelernt. Das freut mich sehr.	I see that you have studied very hard. I am very pleased about that.	Ko'ryapmanki, sen juda tirishqoqlik bilan o'rganibsan, bundan juda mamnunman.
Ich finde, du hast da sehr klug argumentiert	I think you argued very cleverly.	Menimcha, sen juda aqli dalil keltirding.
Sie haben das sehr klar und schön formuliert.	You put it very clearly and beautifully	Siz buni juda aniq va chiroyli shakllantirdingiz.
Sie haben die Sache auf den Punkt gebracht	You got to the heart of the matter	Siz masalaning mohiyatiga yetib keldingiz.
Du hast dich sehr gut vorbereitet	You have prepared very well	Sen juda yaxshi tayyorgarlik ko'ribsan.

Dein Aufsatz hat mir sehr gefallen. Ich bin sehr zufrieden	I really liked your essay. I'm very satisfied.	Menga inshoing juda yoqdi. Men juda mamnunman.
Ich bin mit deinen Leistungen rundherum zufrieden.	I am completely satisfied with your services.	Men sening ishlaringdan to'liq mamnunman.

Xatolar va ularni tuzatishda ishlatiladigan leksik birliklar

Tanqid dalda beruvchi va rag'batlantiruvchi bo'ladimi yoki shunchaki tanbeh bo'ladimi, ko'pincha u qanday ohangda aytilganiga bog'liq.

«Mach dir nichts draus, so schlimm war das nicht, das kann schon mal schiefgehen.

«Xavotir olma, bu unchalik yomon bo'lmadi, hali buni to'g'rilash mumkin.

„Aber beim nächsten Mal klappt's dann hoffentlich besser.

Lekin umid qilamanki, u keyingi safar hammasi yanada yaxshiroq bo'ladi.

Pedagog tanqidlari quyidagi turlarda o'z ifodasini topadi:

- | | |
|---------------------------------------|----------------------------------|
| • Unaufmerksamkeit | E'tiborsizlik |
| • Zerstreutheit | Beparvolik |
| • mangelnde Konzentration | Konsentratsiyaning yetishmasligi |
| • Unkonzentriertheit | Diqqat-etiborsizlik |
| • Stören des Unterrichts | Darsga halal berish |
| • Schlichte Faulheit | Oddiy dangasalik |
| • Bequemlichkeit | Qulaylik |
| • Trägheit | Inertiya |
| • Nachlässigkeit | Beparvolik |
| • Aggressivität | Tajovuzkorlik |
| • mangelhaftes Sozialverhalten | Yomon ijtimoiy xulq-atvor |
| • fehlendes Verantwortungsbewusstsein | Mas'uliyat hissi yo'qligi |
| • Unordnung | Tartibsizlik |

Ularini quyidagi jumlar orqali ifodalash mumkin bo'ladi:

Ich bin mit deiner Leistung gar nicht zufrieden- Ishingdan umuman qoniqmadim Das ist nicht so gut wie das letzte Mal- Bu avvalgidek yaxshi emas

Da hast dir nicht sehr viel Mühe gegeben- Sen juda ko'p harakat qilmabsan

Du musst deutlicher schreiben- Sen aniqroq yozishing kerak

Du bist in der letzten Zeit etwas faul gewesen, Gisa. Es wird Zeit, dass sich das

ändert- So‘nggi paytlarda biroz dangasa bo‘lding, Gisa. Buni o‘zgartirish vaqti keldi.

Xatolarni tahlil qilishda quyidagi xatolar turlari uchraydi:

- | | |
|------------------------|-----------------------|
| ➤ Rechtschreibfehler | Imlo xatolari |
| ➤ Kommafehler, | Vergul xatosi, |
| ➤ Aussprachefehler, | Talaffuz xatolari, |
| ➤ Wortfehler, | So‘z xatolari |
| ➤ Ausdrucksfehler, | Ifoda xatolari, |
| ➤ Grammatikfehler, | Grammatik xatolar, |
| ➤ Stilfehler | Uslubiy xatolar |
| ➤ Flüchtigkeitsfehler, | Ehtiyotsizlik xatosi, |
| ➤ Druckfehler, | Chop etish xatolari, |
| ➤ Tippfehler | Yozish xatosi |

Yozma tuzatishlar kiritishda talaba qaysi turdagi xatoliklarga yo‘l qo‘yganligini bilish foydali bo‘ladi, ayniqsa, ayrim turdagi xatolar tez-tez takrorlansa.

Xatolar haqida gapirish.

1. *Das kann man so nicht sagen. Siz buni shunday deya olmaysiz*
2. *Ein Deutscher würde das so nicht sagen. Nemis kishisi bunday demagan bo‘lardi.*
3. *Da hast du dich vertan, das muss anders heißen. Sen xato qilding, buni boshqa narsa deb atash kerak.*
4. *Ich bin nicht ganz damit einverstanden, Ich würde eher die Passivform verwenden. Men bunga to‘liq qo‘shilmayman, men majhul nisbatdan foydalanishni afzal ko‘raman*
5. *Kann mir jemand sagen, wie es richtig heißen muss. Kimdir menga to‘g‘ri nomi nima ekanligini ayta oladimi?*
6. *Da ist ein Wort falsch geschrieben. Bir so‘z noto‘g‘ri yozilgan.*
7. *Ich finde das missverständlich, was Sie da gesagt haben. Men Siz aytgan so‘zlarni noto‘g‘ri deb bilaman.*
8. *Du hast das Verb weggelassen. Sen fe‘lni tushirib qoldirding.*

Tartib – intizom. Intizomiy qiyinchiliklar odatda faqat maktab yoshidagi bolalarda yuzaga keladi. Bolalar darslarni shu qadar buzishi mumkinki, natijada o‘qituvchi mavzuni yaxshi o‘rgata olmaydi. Chunki qiziqish va o‘rganishga tayyor bo‘lgan bolalar ham bu buzilishlardan aziyat chekadi. Bundan tashqari, maktab nafaqat bilim berish, balki shaxsiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shishi kerak. Shuning uchun ijtimoiy xulq-atvordagi jiddiy kamchiliklar noto‘g‘ri ish bilan bir xil

e'tiborga loyiqdır. Quyidagi jumlarlar ushbu mavzuga bag'ishlannagan:

I. Kech kelganda – uzr so'rash

1. *Warum kommst du zu spät / jetzt erst / erst zur zweiten Stunde? Nega / endi / faqat ikkinchi darsga kechikding?*
2. *Bist du mal wieder zu spät? Yana kechikdingmi?*
3. *Kannst du auch mal rechtzeitig kommen? Vaqtida kela olasanmi?*
4. *Was sagt man, wenn man zu spät kommen? Kech qolganda nima deyiladi?*
5. *Das ist das zweite mal in dieser Woche. Bu haftada ikkinchi marta.*

O'quvchining javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *Ich möchte mich entschuldigen. Bitte entschuldigen Sie mich. Men kechirim so'ramoqchiman. Kechirasiz.*
2. *Tut mir leid, dass ich zu spät bin. Kechirasiz, kechikdim.*
3. *Tut mir leid, ich habe verschlafen. Kechirasiz, uxlab goldim.*

II. O'quvchilarni tinchlantirishda ishlatiladigan leksik birliklar:

1. *Etwas mehr Ruhe bitte, damit wir anfangen können. Boshlashimiz uchun biroz tinchlaning.*
2. *Könnte ich bitte etwas mehr Ruhe haben? Iltimos, biroz tinchlansak bo'ladimi?*
3. *Absolute Ruhe bitte, damit wir weiterarbeiten können! Ishni davom ettirishimiz uchun butunlay tinchlaning!*
4. *Ich warte darauf, dass hier endlich Ruhe ist! Bu yerda nihoyat jimlik bo'lishini kutyapman!*
5. *Darf ich um Aufmerksamkeit für Lola bitten? Sie liest jetzt ihren Aufsatz vor. Lolaga diqqat-e'tiborimizni qaratamiz! Hozir u o'z inshosini o'qiydi.*

III. Taqiqlar, nasihatlar

1. *Das Mitbringen von Handys ist verboten. Uyali telefonlarni olib kirish taqiqlanadi.*
2. *Handys sind grundsätzlich abzuschalten. Mobil telefonlar doimo o'chirilgan bo'lishi kerak.*
3. *Das ist die letzte Warnung! Ich warne dich zum letzten Mal! Es reicht. Bu oxirgi ogohlantirish! Men seni oxirgi marta ogohlantiraman! Yetar.*
4. *Hör auf, mit dem Stuhl zu wackeln! Bu stulni silkitishni bas qiling!*
5. *Meine Geduld ist am Ende! Mening sabrim tugab boryapti!*

Yuqorida keltirilgan misollarni yana kengaytirish mumkin. Nemis tili fani o'qituvchilari mana shunday leksik birliklardan unumli foydalanib darslarni tashkil qilsa, o'ylanmizki, avvalo ularning so'z boyligi oshadi va o'quvchilarning ongiga birinchi darsdan nemischa muloqot qilish singib boradi. Agar o'qituvchi dars davomida o'zbekcha so'zlar ishlatlsa, o'quvchilar ham o'qituvchining ham lug'at boyligi yoki gapirish ko'nikmasi rivojlanmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Muloqot qilish uchun, tushunish va tushuntira olish kerak, ushbu ikkita asosiy qismni to'ldirish uchun lingvistik bilimga ega bo'lish kerak. Leksika deganda biz odatda so'zlarning bosma ro'yxati mavjud bo'lgan kitobni tushunamiz. Boshqa tomondan, psixolingvistika ya'ni «lingvistik bilimlar bazasi» uzoq muddatli xotirada saqlangan" va kerakli vaqtda uni og'zaki nutqda foydalanib qo'llay bilish tushuniladi.

Xulosa shuki, har bir o'quvchi maktabni bitirguncha ikkita chet tilini ma'lum darajada o'rganib chiqishi lozimligi ta'kidlanar ekan, bunga malakali o'qituvchilarning nutqidagi leksik birliklarning qo'llanilishi jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi deb ishonamiz. Chunki nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning kundan-kunga ortib borishi, yuqorida keltirilgan chet tili darslarida o'quvchilarni maqtash va tanqid qilishda ishlatiladigan leksik birliklarning muntazam qo'llanilishida, degan fikrdan ham yiroq emasmiz.

REFERENCES

1. Butzkam W. Unterrichtssprache Deutsch Wörter und Wendungen für Lehrer und Schüler. Ismaning Deutschland, Hueber. 2007. -S. 70-85.
2. Helmuth F. Wörter und Wendungen: kennen, lernen, können. In: Praxis Deutsch, 2009. -S. 4-13
3. Sanakulov, Z. (2023). THE SIGNIFICANCE OF PRONOUNS IN LINGUISTIC RESEARCH. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(6), 265–268. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V4-I6-37>
4. Kühn P. Rezeptive und produktive Wortschatzkompetenzen. In: Willenberg, Heiner. *Kompetenzhandbuch für den Deutschunterricht. Auf der empirischen Basis des DESI-Projekts*. Baltmannsweiler: Schneider, 2007. -S. 159-167
5. SANAKULOV, Z. (2023). ADABIY ONOMASTIKA ILMIY TADQIQOTNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/721>
6. Wolfgang M. Methoden für den Unterricht. 75 kompakte Übersichten für Lehrende und Lernende. Paderborn: Schöningh. 2007.
7. Sanakulov Z. (2022). THE IMPORTANCE OF PROPER NAME IN MODERN LANGUAGE. *Экономика и социум*, (6-1 (97)), 248-251.
8. Karshiyeva, D. (2023) "THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL PRACTICE IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE", *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(6), pp. 113–124. doi: 10.37547/mesmj-V4-I6-18.
9. Karshiyeva, D. (2021). «ШКОЛЬНЫЙ КЛАСТЕР» - КАК ИННОВАЦИОННАЯ ФОРМА ОБРАЗОВАНИЯ. АКТУАЛЬНОЕ В

ФИЛОЛОГИИ, 3(3). ИЗВЛЕЧЕНО ОТ
<https://ruslit.jdpu.uz/index.php/ruslit/article/view/1024>

10. Д. Э. Қаршиева (2021). ГЕРМАНИЯ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА “МАКТАБ КЛАСТЕРИ”. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 397-401.

11. Дилбар Қаршиева (2021). “КОМПЕТЕНТЛИККА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМ”ДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ АҲАМИЯТИ. Scientific progress, 2 (2), 1522-1528.

CONTENTS | INHALTSVERZEICHNIS | MUNDARIJA

45.Imomqulov, F. N. USING PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ALLEVIATE STRESS AND IMPROVE ENGLISH LANGUAGE LEARNING OUTCOMES.	202-204
46.Xasanboeva, N. X. ENGLISH ROMANTICISM AND ITS DEVELOPMENT.	205-207
47.Rafiqjanova, M. N. INTEGRATING PSYCHOLOGY INTO ENGLISH TEACHING TO ENCOURAGE SELF-DIRECTED LEARNING AND INDEPENDENCE.	208-210
48.Xasanboeva, N. X. GERMANIYA TA'LIM TIZIMI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.	211-213
49.Xolboyev, O. O. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION FOR BEGINNERS: A COMPREHENSIVE PEDAGOGICAL APPROACH.	214-215
50.Тошматова, М. К. ПОЯВЛЕНИЕ НОВЫХ ПОДХОДОВ В ЛИНГВИСТИКЕ.	216-220
51.Makhmudjonova, U. U. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING CRITICAL THINKING IN PRIMARY EDUCATION.	221-225
52.Baratov, S. A. SEMANTIC PECULIARITIES OF TOURISM TERMS IN THE ENGLISH LANGUAGE AND TEACHING.	226-229
53.Aribjonov, U. A. THE ROLE OF LEXICOGRAPHY IN LINGUISTICS.	230-232
54.Akhmedova, M. F. IMPROVING ENGLISH PRONUNCIATION THROUGH SHADOWING TECHNIQUE.	233-237
55.Mavlonova, M. B. THE ROLE OF PHONETICS IN TEACHING ENGLISH.	238-241
56.Abduhamidova, G. I. LANGSTON HUGHES AND HIS POETRY.	242-244
57.Kadamova, Z. R. (1). TEACHING ENGLISH WITH INTERACTIVE GAMES.	245-248
58.Kurganova,, D., & Sobirova, M. GESCHICHTE VON DEUTSCHLAND.	249-254
59.Турдалиева, А. Н. БОЛЫМДЫ ЖӘНЕ БОЛЫМСЫЗ СӨЙЛЕМДЕР.	255-257
60.Xoshimova, O. U. GERMANIYANING TA'LIM SOHASI.	258-260
61.Tilabova, G. A. CHET TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MAQTASH VA TANQID QILISHDA ISHLATILADIGAN LEKSIK BIRLIKLAR.	261-267
62.Xusenova, I. I. BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI O'QITUVCHISINING DARS ISHLANMALARINI TUZISH.	268-271
63.Akhmedova, M. F. THE SECOND WORLD WAR IN AMERICAN LITERATURE.	272-274
64.Akhmedova, M. F. WOMEN-WRITERS IN ENGLISH LITERATURE.	275-277
65.Akhmedova, M. F., & Khamitov, E. E. HUMOR AND SATIRE IN WILLIAM SHAKESPEARE'S COMEDIES.	278-281
66.Kozokova, F. S. WALTER SCOTT IS A HISTORICAL NOVELIST IN ENGLISH LITERATURE.	282-285
67.Xasanboeva, N. X. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI.	286-289
68.Maratova, O. A. DARSLARNI DIFFERENSIATSIYALASH USULI ORQALI TASHKILLASHTIRISH.	290-293
69.Sherqo'ziyeva, Z. F. CHET TILLARNI O'QITISH METODIKASIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH MASALALARI.	294-297
70.Munavvarov, O. A. THE HISTORY OF WORD.	298-303